

# O'QUVCHILARDA TINGLAB TUSHUNISH KO'NIKMALARINI O'RGAATISHNISH ZAMONAVIY

metodlari .

Alisher Navoiy nomidagi  
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti  
universiteti 3-bosqich talabasi

G'afurova Mohichehra

**Annotation:** Mazkur maqolada o'quvchilarda tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy metodlari yoritilgan. Tinglab anglash-til o'rGANISHNING asosiy bosqichlaridan biri bo'lib, matn mazmunini tushunish, eslab qolish, asosiy g'oyani ajratish, mulohaza yuritish kabi ko'nikmalarni shakllantiradi. Muallif interfaol metodlar, audio vositalar, podkastlar, o'yinli mashg'ulotlar va guruhli ishlash orqali bu ko'nikmalarni samarali rivojlantirish yo'llarini tavsiya etadi.

**Kalit so'zlar:** tinglab tushunish, interfaol usullar, audio materiallar, o'yinli topshiriqlar, til o'rGANISH, eshitish, muloqot.

**Аннотация :** В статье рассматриваются современные методы развития навыков аудирования у школьников. Аудирование играет ключевую роль в изучении языка, способствуя пониманию содержания речи, выявлению основной идеи и её запоминанию. Автор предлагает применять интерактивные методы, аудиоматериалы, подкасты, игровые упражнения и групповую работу как эффективные средства обучения.

**Ключевые слова:** аудирование, интерактивные методы, аудиоматериалы, игровые задания, изучение языка, слушание, коммуникация.

**Annotation:** This article explores modern techniques for developing students' listening comprehension skills. Listening plays a crucial role in language learning by fostering the ability to understand spoken content, identify main ideas, and retain

information. The author recommends using interactive strategies, audio resources, podcasts, game-based activities, and group work as effective approaches to enhance listening proficiency.

**Keywords:** listening comprehension, interactive methods, audio materials, game-based learning, language acquisition, listening, communication .

Bugungi kunda til o'rganishda muhim bo'lgan to'tta qobilyatlar orasida tinglab tushunish ham asosiy o'rinni egallaydi. Tinglab tushunishni rivojlantirish – o'quvchilarning og'zaki nutqni diqqat bilan tinglab , uni to'g'ri anglash , asosiy g'oya va tavsiyotlarni tushunib yetish ko'nikmasini shakllantirish jarayonidir . bu ko'nikma ona tili va adabiyot darslarida , ayniqsa boshlang'ich va umumiy o'rta ta'lim bosqichida juda muhimdir.

Tinglab tushunish ko'nikmasi – faqat eshitish bilan cheklanmaydi, balki tinglangan nutqni chuqurroq tushunishga, uning ma'nosini anglashga va natijada to'g'ri javob berishga yordam beradi .Tinglab tushunish ko'nikmasini shakllanishida diqqat , xotira , sezgi juda katta ahamiyatga ega. O'quvchilarga berilgan dialog , qo'shiq va matnlarni tinglab , shular yuzasidan o'z fikrlarini bildiradilar. Ushbu ko'nikma darsning mustahkamlash qismida yangi mavzu bo'yicha , o'tilgan mavzuni so'rashda va darsning tashkiliy qismida o'quvchilar faolligini oshirish maqsadida biror bir dialogni qo'yib berish orqali bajarish mumkin. Tinglab tushunish ko'nikmasi o'quvchilarning tinglash qobilyatini, diqqatni bir joyga jamlash va tilni jonli tarzda o'rganishga o'rgatadi. Diqqatning yuqori darajasi eshitilgan fikrni tahlil qilish va keyinchalik yodda saqlash imkonini oshiradi. Xotira orqali biz eshitilgan matnni yana eslab, tahlil qilishga muvaffaq bo'lamic. Xususan , qisqa muddatli xotira esa eshitilgan ma'lumotni vaqtincha yodda saqlashga ko'maklashadi , bu esa muloqot davomida tinglangan ma'lumotni to'liq anglash imkonini beradi. Sezgi ham tinglab tushunish ko'nikmasining ajralmas tarkibiy qismidir , ovoz, urg'u, ohang va so'zlarning talaffuzi

orqali biz nafaqat gapning ma'nosini balki ularni aytish uslubini, his-tuyg`ularni va holatni ham sezamiz. O`qitishda interfaol usullarni qo'llash orqali o`quvchilar o`rtasida faol muhit shakllanadi , o`quvchilarning faolligi oshadi va natijada ular birgalikda bilim egallashga kirishadilar. Bu ayniqsa, muloqotga tayyorlanishda tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tinglab tushunish – bu faol eshitish, yani ma'lumotni qabul qilish, uni qayta ishslash, anglash, asosiy g'oyani ajratish , matn mazmunini eslab qolishdan iborat. Tinglash ko'nikmalarini o'rgatishning zamonaviy samarali usullari hamma narsani o'z ichiga oladi masalan interaktiv mashqlardan multimedia resurslarigacha. Tinglash qobiliyati eng yaxshi o'rganishi mumkin bo'lgan qobilyat sanaladi. Chunki o'rganishga birozgina ko'proq e'tibor qaratilsa u oddiy va qiziqarli tadbirlar orqali yaxshilandi va yakunida yaxshi natijalarga olib keladi. Bu holatdasiz kichik yoki katta talabalar guruhlari bilan ishlappingiz muhim emas, siz o'zingizni rivojlantirish uchun quyidagi usullardan birini qo'llasangiz mumkin.<sup>1</sup>

Talabalarga yaxshi tinglashni o'rgatishning o'ziga xos usullari:

1. Qani top , qaysi matn edi ? o'yini :
  - Har xil matnlardan parcha o'qiladi yoki eshittiriladi.
  - O 'quvchi bu qaysi mashhur hikoya,ertak yoki asardan olinganligini aniqlaydi.
2. Detektiv tinglsh usuli:
  - O'quvchilarga voqeaga boy , sirlarga to'la audio hikoya tinglatiladi.
  - Voqeani yechish uchun ular dalillarni eslab qolishlari, aniqlik kiritishlari kerak bo'ladi.
3. Gamifikatsiya – tinglab o'yin o'nash usuli:

<sup>1</sup> H.Norqo'ziyeva. Tinglab tushunish ko'nikmalarini o'rgatishning zamonaviy metodlari.//Maqola.-T.2022.b-75.

- Kahoot , quizizz yoki wordwall platformalaridan foydalanib , tinglab tushunishga oid viktorinalar tashkil etish.
- O‘quvchilar matn yoki suhbatdan tinglab , to‘g‘ri javoblarni tanlashadi.

Afzalligi : rag‘batlantiradi, motivatsiyani oshiradi.

#### 4. Potkast va blog tinglash (media tinglov):

- O‘quvchilaraga yoshlar uchun mos bo‘lgan qisqa podkastlar yoki audio bloglar eshittiriladi.
- Keyinchalik ularga savollar beriladi yoki mavzu bo‘yicha fikr bildirish topshiriladi.

O‘quvchilarni kichik guruhlarga bo‘lish va ular bilan rol ijro etish, intervyular, hikoya qilish kabi faoliyatlarni tashkil etish tinglash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, guruh faoliyati va savollar orqali o‘quvchilar o‘rtasidagi muloqotning intensivligi ortadi va ularning tinglashdagi tushunish qobiliyatları yaxshilanadi. Til o‘rganish jarayonida tinglashni muntazam ravishda va samarali usullar bilan rivojlantirish, o‘quvchilarga tilni yaxshiroq va tezroq o‘zlashtirish imkonini beradi.<sup>2</sup>

Maktab sharoitida o‘quvchilarning tinglab tushunishi sohasidagi qiyinchiliklar quyidagilardan iborat:

1. **Tilga oid shakliy qiyinchiliklar** . Ma’nosи har xil tovush shakli esa o‘xhash so‘zlarni (omofonlarni) yoki fe’lning majhul darajasini tinglash va tushunish murakkablik kasb etadi.

2. **Mazmunga doir qiyinchiliklar**. Olinayotgan axbarot qamrovidagi nima , qayerda, kim bilan, qachon bo‘lishi kabi dalillarni idrok etish , ilg‘ab olish qiyinchiliklar mavjudligidir.

<sup>2</sup> Sabdenova K. O‘quvchilarda tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish.//Maqola.-T.2025.b-160.

3. **Nutq shakliga oid qiyinchiliklar.** Dialog nutqda javob qaytarish , monologni tinglashda esa uzun jumlalarni eshitish xotirasida saqlash o‘quvchi uchun muayyan qiyinchilik keltirib chiqaradi.

Qiyinchiliklarni o‘z vaqtida bartaraf qilish yo‘li bilan ta’lim jarajonini jadallashtirish va o’qitishning eng maqbul metodikasi ishlab chiqishga muvaffaq bo‘linadi.<sup>3</sup>

Yuqorida bayon etilgan asosiy mulohazalardan shuni xulosa qilish mumkinki, tinglab tushunish ko‘nikmasini samarali shakllantirish uchun dars jarayonida o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minalash, turli interaktiv usullardan va eshitish mashqlaridan foydalanish muhim sanaladi. Shu yo‘sinda, maktab o‘quvchilarida eshitib anglash mahoratini rivojlantirish nafaqat o‘quv yutuqlari uchun, balki kundalik hayotda muvaffaqiyatli muloqotni yo‘lga qo‘yish nuqtai nazaridan ham zarurdir. Tinglab anglash — o‘quvchilarga nutqni to‘laqonli va aniq tushunish, suhbatda faol qatnashish, fikrga mos javob bera olish imkonini beradi. Bu ko‘nikmalarini mustahkamlashda o‘yinli topshiriqlar, faol yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalar orqali darslar mazmunan boyitilishi kerak

### Foydanilgan adabiyotlar

1. <sup>1</sup> H.Norqo‘ziyeva. Tinglab tushunish ko‘nikmalarini o’rgatishning zamonaviy metodlari.//Maqola.-T.2022.b-7
2. <sup>1</sup> Sabdenova K. O‘quvchilarda tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish.//Maqola.-T.2025.b-160.
3. <sup>1</sup> Jalilov J.Chet tilli metodikasi.- Toshkent: O ‘qituvchi, 2012.- 222-bet

<sup>3</sup> Jalilov J.Chet tilli metodikasi.- Toshkent: O ‘qituvchi, 2012.-222-bet